

AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 02 | pp. 278-284 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

XITOIY XALQ RESPUBLIKASI VA MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINING TASHQI QARZ MUNOSABATLARI



Jabbarov Kamoliddin Yo'ldoshevich,

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent,

<https://orcid.org/0000-0003-0280-550X>,

j.kamoliddin@nuu.uz

Zafarov Rustam Zafar o'g'li,

Mustaqil izlanuvchi.

Ochilova Ma'suma Nodirjonovna,

2-bosqich talabasi.

O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O'zbekiston.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xitoyning yirik kreditor sifatida tashqi qarz siyosatining Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiyotidagi o'rni tahlil qilinadi. Qarz mablag'lari miqdorining ortib borishi keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan xavflar xususida so'z boradi. Maqola so'ngida tadqiqot natijasida olingan xulosalar va ilmiy tavsiyalar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: Xitoy, Markaziy Osiyo davlatlari, tashqi qarz, kreditor, "Qarz tuzog'i diplomatiyasi".

FOREIGN DEBT RELATIONS OF THE PEOPLE'S REPUBLIC OF CHINA AND CENTRAL ASIAN COUNTRIES

Abstract: This article analyzes the role of China's external debt policy as a major creditor in the economies of Central Asian countries. It discusses the risks that may arise from the increase in the amount of debt. The article concludes with conclusions and scientific recommendations drawn from the research.

Key words: China, Central Asian countries, external debt, creditor, "Debt trap diplomacy"

ВНЕШНИЕ ДОЛГОВЫЕ ОТНОШЕНИЯ КИТАЙСКОЙ НАРОДНОЙ РЕСПУБЛИКИ И ГОСУДАРСТВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Аннотация: В статье анализируется роль внешней долговой политики Китая как крупного кредитора в экономике стран Центральной Азии. В нем рассматриваются риски, которые могут возникнуть в связи с увеличением суммы долга. Статья завершается выводами и научными рекомендациями, полученными в результате исследования.

Ключевые слова: Китай, страны Центральной Азии, внешний долг, кредитор, «Дипломатия долговой ловушки»

Kirish. So'ngi yillar davomida Xitoy dunyo hamjamiyatida o'zining siyosiy hamda iqtisodiy o'rnini mustahkamladi hamda global kuchlardan biriga aylandi. Biroq bu qanday sodir bo'lganligi va bu yaqin kelajakda boshqa davlatlar uchun qanday oqibatlariga olib kelishi haqida turli taxminlar va munozaralar mavjud. Ko'pchilik Xitoy o'zining rivojlanish modelini eksport qiladi va uni boshqa mamlakatlarga joriy qiladi, deb ta'kidlaydi. Ammo Xitoy mahalliy va an'anaviy shakllar, me'yorlar va amaliyotlarni moslashtirib, o'zlashtirib, mahalliy siyosatchilar va institutlar bilan ishlash orqali o'z ta'sirini kengaytirmoqda. Xitoy, ayniqsa, ushbu maqsadlarda qarz munosabatlaridan oqilona foydalanmoqda deyish mumkin. Maqolada Xitoyning kreditor sifatida Markaziy Osiyo davlatlari bilan iqtisodiy aloqalari hamda bu hamkorlikning mintaqamamlakatlari uchun umumiy va individual xavf darajasi tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Bugungi kunda Xitoyning qarz siyosati dunyo iqtisodchilarining diqqat markazidagi masalalardan biri bo'lishiga qaramasdan, bu borada Markaziy Osiyo iqtisodchi olimlarining ulushi kamchilikni tashkil etadi. Markaziy Osiyoda Xitoyning tashqi qarz siyosatini chuqur tahlil qilgan yosh olimlardan biri, Markaziy Osiyo Amerika universitetining Xalqaro va qiyosiy siyosat kafedrasidotsenti Nargiza Murataliyeva hisoblanadi [1]. Shuningdek, Tojikistonning Asia-Plus nashri mutaxassisi Payrav Chonshanbiyev [2], Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Bishkek akademiasining Markaziy Osiyo ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish guruhi tomonidan ham Xitoy – Markaziy Osiyo munosabatlari, ayniqsa "Bir kamar, bir yo'l tashabbusi" doirasida hamkorlik chuqur tahlil qilinib kelinmoqda [3]. Xitoyning Markaziy Osiyodagi qarz siyosatini xalqaro moliya institutlari va xorijiy ekspertlar ham faol kuzatib borishayotganliklarini turli tahliliy maqolalardan ham bilish mumkin.

Tahlil va natijalar. Xitoyning butun dunyo bo'ylab rivojlanayotgan mamlakatlarni kreditlashi so'ngi paytlarda ko'pchilik mutaxassislarining e'tiborini tortdi. Ba'zi tahlilchilar bu siyosatni hatto "Qarz tuzog'i diplomatiyasi" deya davolishmoqda [1].

"Qarz tuzog'i diplomatiyasi" tushunchasi birinchi marta hind akademigi Brahma Chellani tomonidan 2017-yilda fanga kiritilgan. Ushbu atama Xitoyning "Bir kamar, bir yo'l tashabbusi" bilan bog'liq ravishda qo'llaniladigan, nisbatan yangi siyosat vositasini tavsiflaydi. Strategiya Xitoyning past daromadli, yuqori qarzga ega va ularni to'lay olmaydigan mamlakatlarga haddan tashqari ko'p kreditlar berishini nazarda tutadi [4]. Pekin 2000-yildan beri Markaziy Osiyoda kreditlash faoliyatini kengaytirmoqda. Dastlab bu siyosat Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT) doirasida amalga oshirildi. 2004-yil Toshkentda bo'lib o'tgan SHHT sammitida Xitoy tashkilotga a'zo mamlakatlarga 900 mln. AQSH dollari miqdorida kredit ajratishini e'lon qilgan edi. 2009-yilga kelib bu ko'rsatkich 10 mlrd. AQSH dollarigacha oshirildi. O'shandan beri Markaziy Osiyo davlatlari Xitoydan faol qarz olishda davom etmoqda [5]. O'tgan besh yilda ushbu maqsadli ko'rsatkich 11 barobar ortig'i bilan bajarilgan.

Odatda Xitoyning kreditlari aniq maqsadlarga ega. Pekin faqat Xitoy mahsulotlari bozorini kengaytirish va boyliklarni uzatish imkonini beradigan loyihalar uchun kreditlar taklif qiladi. Xitoy Markaziy Osiyoda asosan neft va gazni tashish, energiya resurslarini

rivojlantirish, konchilik faoliyati va infratuzilma loyihalariga kreditlar ajratadi. Kredit ajratishning majburiy talablaridan biri Xitoy kompaniyalarining ushbu loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etishiga imkon berishdir. Tojikistonlik siyosatshunos Parviz Mullojonovning fikricha “Xitoyning barcha mamlakatlar uchun standart siyosati bor: ular o‘z ishchi kuchlarini ish bilan ta‘minlashlari kerak, shuning uchun ular barcha loyihalarni amalga oshirish uchun o‘z odamlari va sanoat resurslarini jo‘natadi. Xitoy o‘z sanoati uchun bozorga muhtoj” [6]. Shu kabi Markaziy Osiyoda energetika sohasiga oid loyihalarning asosiy qismi “Bir kamar, bir yo‘l tashabbusi” doirasida amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan (1-jadval).

1-jadval.

Markaziy Osiyoda “Bir kamar, bir yo‘l tashabbusi” doirasida energetika loyihalari soni va mamlakatlar bo‘yicha jami moliyalashtirish qiymati [7]

Davlat nomi	Loyihalar soni	Loyiha qiymati (mln. AQSH dollari)
Qozog‘iston	20	18 849,50
O‘zbekiston	12	205,30
Tojikiston	7	4 516,0
Qirg‘iziston	5	2 713,0
Turkmaniston	4	9 410,0

Jadvaldan “Bir kamar, bir yo‘l tashabbusi” doirasida Markaziy Osiyoda amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan loyihalarning soni (20 ta loyiha) va ajratiladigan mablag‘larning (18 849,5 mln. AQSH dollari) yirik qismi Qozog‘iston hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rish mumkin. O‘zbekiston loyihalar soni (12 ta loyiha) bo‘yicha 2-o‘rinda bo‘lishiga qaramasdan ajratiladigan mablag‘larning (205,3 mln. AQSH dollari) eng kam qismiga egalik qilmoqda. Bu nomutanosiblik loyihalarni moliyalashtirishning bir qismi O‘zbekistonning o‘z mablag‘lari hisobiga amalga oshirilishi yoki loyihalar ko‘lamiga ko‘ra qo‘shni davlatlarda amalga oshiriladigan loyihalarga nisbatan kichik bo‘lishi mumkinligi bilan bog‘liq. Turkmanistonda esa tashabbus doirasidagi 4 ta loyiha qiymati 9 410,0 mln AQSH dollari ekanligini ko‘rish mumkin. Qirg‘iziston va Tojikistonda loyihalar soni muvofiq ravishda 5 ta va 7 ta hamda ularning qiymati 2 713,0 va 4 516,0 mlrd. AQSH dollarini tashkil etomqda.

Oxirgi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Pekin qarzlari boshqarishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan mamlakatlar uchun ham favqulodda vaziyatlarda qutqaruv kreditoriga aylangan. 2008-2021-yillarda Xitoy asosan “Bir kamar, bir yo‘l tashabbusi”ga aloqador, qarz inqirozi yoqasida turgan 22 mamlakatni qutqarish uchun 240 mlrd. AQSH dollari ajratgan. Favqulotda qutqaruv kreditlarining 80% dan ortig‘i 2016-yildan keying davrga to‘g‘ri keladi va 2021-yilning o‘zida 40 mlrd. AQSH dollaridan ortiq kredit ajratilgan [8].

Shri-Lanka, Pokiston, Mo‘g‘uliston, Zambiya, Kongo, Jibuti, Keniya va Efiopiya kabi davlatlarga so‘nggi yillarda Xitoyning qarz tuzog‘i siyosatining ta‘siri sezilarli bo‘lgan. Ushbu siyosatning yorqin namunasi Shri-Lankadagi Hambantota portidir. Xitoy

hukumati portni rivojlantirish uchun kredit ajratdi va bu xitoylik pudratchilar tomonidan amalga oshirildi. Shri-Lanka kredit to'lovlarini bajara olmagach, Xitoy qarzni to'lash shakli sifatida portni 99 yilga ijaraga oldi. Ushbu 99 yillik ijara Pekin uchun strategik ahamiyatga ega, ayniqsa uning Hind okeanida Hindiston bilan raqobati kontekstida [4].

Statistik ma'lumotlar Markaziy Osiyoda Xitoyning iqtisodiy ta'sirining kengayishi bilan ushbu mintqa davlatlarining Pekin oldidagi qarzi sezilarli darajada oshganini ko'rsatmoqda. 2023-yilning birinchi yarmida Markaziy Osiyo davlatlarining Xitoy oldidagi jami qarzi 15,7 milliard dollarga yetdi, bu mintqa tashqi qarzining 7,6 foizini tashkil qiladi [9].

Qozog'istonning Xitoy oldidagi qarzi mintqa standartlari bo'yicha eng qulay hisoblanadi. Qozog'iston Milliy bankining ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2024-yil 1-yanvar holatiga, Ostona birinchi navbatda Xitoy Eksport-import bankiga (Eksimbank) 9,2 milliard AQSH dollari qarzdor bo'lgan [10]. Ammo ushbu qarz Qozog'iston yalpi ichki mahsulotining (YaIM) atigi 3,5 foizini tashkil etadi va bu ko'rsatkich uch yil ichida sezilarli o'zgarmagan. Xitoy, shuningdek, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, AQSH, Fransiya va Rossiya kabi Qozog'istonning eng yirik kreditorlari o'nligidan o'rin olgan. Qozog'istonning Xitoy oldidagi qarzlarni to'lamaganligi yillar davomida Xitoyning mamlakat neft sanoatidagi ulushining oshishiga olib kelgan.

2024-yil 1-yanvar holatiga O'zbekistonning tashqi qarzi 29,64 milliard AQSH dollarini tashkil etib, shundan, 3,7 milliard AQSH dollari Xitoy hissasiga to'g'ri kelgan va bu miqdor mamlakat jami tashqi qarzining 13% ini tashkil etadi. Shunga qaramay, O'zbekiston turli kreditorlardan qarz olish orqali o'zining kredit tavakkalchiligini yumshatib kelmoqda. 2024-yilning 2-choragi yakunlariga ko'ra mamlakat jami tashqi qarzining 55% i Xalqaro moliya institutlari hissasiga, 32% i xorijiy hukumatlarning moliya tashkilotlariga hamda 14% i investorlar hissasiga to'g'ri kelmoqda [11]. O'zbekiston tashqi qarz munosabatlarida keskinlikni nazorat qilish uchun nafaqat turli kreditorlardan mablag'lag'lar jalb qilmoqda, balki jalb qilingan mablag'lardan daromad keltiruvchi tarmoqlarni qo'llab quvvatlash uchun foydalanmoqda. Shunday loyihalardan biriga misol sifatida 2016-yil 22-iyun kuni foydalanishga topshirilgan Angren-Pop elektrlashtirilgan temir yo'lini keltirish mumkin. Ushbu temir yo'l qurilishi uchun Xitoyning Eksimbanki tomonidan 350 mln. AQSH dollari miqdorida kredit ajratilgan [1].

Turkmanistonning Xitoy oldidagi qarzi miqdori to'g'risida rasmiy ma'lumotlar yo'q. Biroq Xitoy Turkmanistonning energetika loyihalariga sarmoya kiritgani va Turkmaniston-Xitoy gaz quvuri qurilishini moliyalashtirgani haqida ma'lumotlar mavjud. Xitoy kreditlari miqdori haqida rasmiy ma'lumot mavjud bo'lmasa-da, turli hisob-kitoblarga ko'ra, Ashxobodning Xitoyga qarzi taxminan 12 mlrd. AQSH dollarini tashkil etadi. 2021-yilda rasmiy Ashxobod Pekin bilan kelishuvga erishganini e'lon qilgan bo'lsada, Turkmaniston tabiiy resurslarga investitsiyalar sxemasini ifodalovchi gaz ta'minoti orqali o'z qarzlarini natura shaklida to'lagan degan taxminlar mavjud [1].

2023-yil so'ngida Qirg'iziston Eksimbankdan 1,7 milliard AQSH dollari qarzdor bo'lgan va Qirg'iziston tashqi qarz majburiyatlarining 36,7 foizi Xitoy hissasiga to'g'ri kelgan [12]. 2020-yildagi Koronavirus pandemiyasi hamda mamlakatdagi tartibsizliklar ortidan Sadir Japarov hukumat tepasiga kelgandan so'ng, Qirg'iziston hukumati boshqa kreditorlar qatorida Xitoydan ham qarzlarni qaytarish muddatini uzaytirishni so'ragan.

Saudiya Arabistoni, Turkiya, Birlashgan Arab Amirliklari, Germaniya Milliy taraqqiyot banki va Euler Hermes xalqaro sug'urta kompaniyalari nol foiz stavkalari bilan muddatni uzaytirishga rozilik bildirishgan [13]. Ayni vaqtda Xitoy foiz stavkasini 2 foizga oshirish sharti bilan qarzni to'lash muddatini qo'shimcha 6 yilga uzaytirishga rozilik bildirgan bo'lib, 2 foizga oshirilgan foiz stavkasi Qirg'izistonga qo'shimcha 3,8 mln. AQSH dollari miqdorida majburiyat yuklaydi [14].

Tojikiston Moliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, Dushanbening tashqi qarzi 2024-yil 1-yanvar holatiga 3,2 milliard AQSH dollar yoki YaIMning 26,9 foizini tashkil qilgan [2]. Asosiy qismi Xitoyning Eksim bankidan olingan jami 900 mln. AQSH dollari miqdoridagi qarz hisobiga Xitoy mamlakatning eng yirik kreditori hisoblanadi [15]. Tojikiston moliya vaziri Fayziddin Qahhorzodaning ta'kidlashicha, mamlakatning Xitoy oldidagi qarzini to'lash borasida hech qanday muammo yo'q [16]. Xitoy va Tojikiston munosabatlarida yana bir e'tiborga molik jihat shundaki, ko'plab xitoylik kompaniyalar Tojikistonda faol sarmoyadorlar bo'lib, Tojikiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2007-2021-yillarda mamlakat iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy sarmoyalarning qariyb 30 % i Xitoy hissasiga to'g'ri kelgan va ularning umumiy miqdori 3,3 mlrd. AQSH dollarini tashkil qilgan. Xitoylik sarmoyadorlar Tojikiston iqtisodiyotining aloqa, qurilish va moliyaviy xizmatlar, geologiya va tog'-kon-qidiruv ishlari, texnologik asbob-uskunalarini o'rnatish, sanoat va boshqa xizmatlar kabi soha hamda tarmoqlariga sarmoya kiritib kelmoqdalar.

Hisob-kitoblardan ma'lum bo'lishicha, so'ngi yillarda Markaziy Osiyo davlatlarining Xitoy oldidagi qarzi kamayib bormoqda (2-jadval).

2-jadval.


Markaziy Osiyo davlatlarining 2020-2023 yillardagi jami YaIM, tashqi qarz va Xitoy oldidagi qarz ko'rsatkichlari tahlili¹

(mlrd. AQSH dollarida)	2020	2021	2022	2023
Xitoy oldidagi qarz	16,99	16,1	15,72	15,64
Jami tashqi qarz	191,91	196,24	194,1	200,23
YaIM	247,68	284,9	329,23	378,36

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib Xitoy Xalq Respublikasi va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi qarz munosabatlariga ma'lum darajada baho berish mumkin. 2020-2023-yillar oralig'ida Markaziy Osiyo davlatlarining Xitoy oldidagi jami tashqi qarzi miqdori 16,99 mlrd. AQSH dollaridan 15,64 mlrd. AQSH dollarigacha, ya'ni 1,35 mlrd. AQSH dollariga kamaygan. Shu o'rinda, ushbu davr mobaynida ma'lum shartnomalar bo'yicha qarzlarni kamaygani va boshqa yangi qarz munosabatlariga kirishilganini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozom. Ayni vaqtda jami tashqi qarz miqdori davr boshidagi 191,91 mlrd. AQSH dollaridan 200,23 mlrd. AQSH dollarigacha oshgan.

¹ Jadval <https://nationalbank.kz/ru>, <https://www.minfin.kg>, <https://www.imv.uz>, <https://moliya.tj> saytlari ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzildi.

Xitoyga bo'lgan qarz darajasi pasaygani holda jami tashqi qarz miqdorining oshishi Markaziy Osiyo davlatlariga boshqa xalqaro moliya tashkilotlaridan investitsiyalar ko'payganini ko'rsatadi. Shuningdek, jami tashqi qarz darajasi va jami YaIM o'rtasida to'g'ri proporsionallik mavjud bo'lib, nazarda tutilayotgan 4 ta davlatlar, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston hamda Tojikistonning jami YaIM miqdori ko'rib chiqilayotgan davr mobaynida 130,68 mlrd. AQSH dollariga ko'payib, 2023-yil yakunida 378,36 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan. Bu esa tashqi qarz ko'rinishidagi investitsiyalarning tarmoqlar kesimida maqsadli foydalanilayotganligidan darak beradi (1-rasm).



1-rasm. Markaziy Osiyo davlatlarining jami YaIM, tashqi qarz va Xitoy oldidagi qarz ko'rsatkichlari

Xulosa va takliflar. Rivojlanayotgan davlatlar doimiy iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida tashqi manbalarga murojaat qilishlari tabiiy hol va aynan iqtisodiy o'sishni tashqi investitsiyalarsiz amalga oshirish uzoq vaqt talab qiluvchi jarayon hisoblanadi. Biroq, bu harakatlar dastlab iqtisodiy rivojlanishni hamda ijtimoiy totuvlikni ta'minlashga qaratilgan bo'lsada, chuqur tahlillarga asoslanib yuritilmagan qarz siyosati mamlakatning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy hamda siyosiy muhitiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. Yuqoridagi tahlillarda Markaziy Osiyo va Xitoy o'rtasidagi qarz munosabatlari umumiy olib qaralganda ijobiydek ko'rinsada, alohida davlatlar kesimida qaralganda Xitoyning qattiqqo'l qarz siyosatini xarakterlovchi xususiyatlari Qirg'iziston va Tojikiston uchun xavf mavjudligini ko'rsatmoqda.

Kam rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning doimiy iqtisodiy o'sishini ta'minlashda tashqi qarzlar asosiy o'rin tutar ekan, qarz tuzog'iga tushib qolmaslik uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

faqatgina bir kreditorga bog'lanib qolmaslik, ya'ni jalb qilinayotgan tashqi qarzlarni turli kreditorlardan olinishi ta'minlash;

olinadigan qarzlarni hukumatning joriy xarajatlarini qoplash kabi daromad keltirmaydigan, natijada qarzga xizmat ko'rsatishda qiyinchiliklarga sabab bo'ladigan maqsadlarda foydalanmaslik;

qarz shartnomasiga asosan foizlar yoki asosiy qarzni to'lash muddatlari grafigi buzilgan taqdirda siyosiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan, mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin tutuvchi tabiiy boyliklar zahiralari, hududiy birliklar kabilarni imkon qadar garov sifatida ko'rsatmaslik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Chinese Lending Adapts to Central Asia's Realities. by Nargiza Muratalieva Published on August 19, 2024. <https://carnegieendowment.org/posts/2024/08/china-investment-central-asia-debt?lang=en>
2. <https://www.asiaplustj.info/ru/news/tajikistan/economic/20240216/vneshnii-dolg-tadzhikistana-v-2023-godu-viros-neznachitelno> Payrav Chorshanbiyev, 16.02.2024
3. [CADGAT Database :: OSCE Academy in Bishkek](#)
4. China's Debt-Trap Diplomacy in Central Asia, By Vali Kaleji. WEDNESDAY, 23 OCTOBER 2024. <https://www.cacianalyst.org/publications/analytical-articles/item/13823-chinas-debt-trap-diplomacy-in-central-asia.html>
5. Central Asia mired in Chinese debt, di [Valerio Fabbri](#) - 11/09/2022. <https://www.geopolitica.info/central-asia-chinese-debt/>
6. Tajikistan: The cost of Chinese debt. 21.07.2022. <https://eurasianet.org/tajikistan-the-cost-of-chinese-debt>
7. Central Asia Regional Data Review 22 (2019) 1–14. Central Asia Data-Gathering and Analysis Team [https://osce-academy.net/upload/file/22 BRI Energy.pdf](https://osce-academy.net/upload/file/22_BRI_Energy.pdf)
8. <https://www.theguardian.com/world/2023/mar/28/china-spent-240bn-belt-and-road-debts-between-2008-and-2021>
9. China as an International Lender of Last Resort. Sebastian Horn, Bradley C. Parks, Carmen M. Reinhart, Christoph Trebesch. Mar 28, 2023
10. Внешний долг по срокам, оставшимся до погашения (График платежей по обслуживанию внешнего долга, Краткосрочный долг по сроку, оставшемуся до погашения). 10.10.2024. <https://www.nationalbank.kz/ru/news/vneshniy-dolg>
11. <https://www.imv.uz/static/davlat-qarzi-statistikasi>
12. Китай кредитует Кыргызстан в долларах, доля долга в юанях всего 2.1%. Ачкабар. 03.06.2024 <https://www.akchabar.kg/ru/news/kitaj-kredituet-kirgizstan-v-dollarakh-dolya-dolga-v-yuanyakh-vsego-21-vjxyanbjfyityob>
13. Внешний долг Кыргызстана. Какие страны согласились дать отсрочку по выплатам. KAKTUSMEDIA. 27.11.2020.
14. https://oper.kaktus.media/doc/426870_vneshniy_dolg_kyrgyzstana._kakie_strany_soglasilis_dat_otsrochky_po_vyplatam.html
15. Отсрочка выплат Китаю по долгам обойдется бюджету КР в \$3.8 млн. Ачкабар. 06.10.2021. <https://www.akchabar.kg/ru/news/otsrochka-viplat-kitayu-po-dolgam-obojdetsya-byudzhetu-kr-v-38-mln-jrsrpnojxebngzxc>

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

